

## MENTALITET VA IJTIMOY MENTALITET TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHIIYATI

**Suyarkulova Guljaxon Zokirjon qizi**  
Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi  
[guljaxonzokirovna@gmail.com](mailto:guljaxonzokirovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada jamiyat tafakkuri oʻzgarishlarining ijtimoiy mentalitetga taʼsiri dolzarblik nuqtai nazaridan ijtimoiy falsafiy qilinib, xulosalar asoslanadi.

**Kalit soʻzlar.** Globallashuv, ijtimoiy transformatsiya, mentalitet, ijtimoiy mentalitet, jamiyat tafakkuri, axborot oqimi, demokratik islohotlar.

## THE ESSENCE AND CONTENT OF “MENTALITY” AND “SOCIAL MENTALITY

**Abstract.** The paper examines the relevance of social thinking transformation through a socio-philosophical approach and substantiates its impact on social mentality.

**Keywords.** Globalization, social transformation, mentality, social thinking, information flows, democratic reforms.

## СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ ПОНЯТИЙ «МЕНТАЛИТЕТ» И «СОЦИАЛЬНЫЙ МЕНТАЛИТЕТ»

**Аннотация.** В статье с позиций социальной философии анализируется актуальное влияние трансформации общественного мышления на социальный менталитет и обосновываются выводы.

**Ключевые слова.** Глобализация, социальная трансформация, менталитет, социальный менталитет, общественное мышление, информационные потоки, демократические реформы.

Jahonda globallashuv, axborotlashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat tafakkurida yuz berayotgan oʻzgarishlarning ijtimoiy mentalitetga taʼsirini ilmiy jihatdan oʻrganish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat ongi, fuqarolik madaniyati va ijtimoiy mentalitet oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tadqiq etish orqali barqaror taraqqiyotni taʼminlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy jamiyatlarda axborot oqimining tezlashuvi, ijtimoiy kommunikatsiyalar kengayishi va madaniy xilma-xillikning ortishi jamiyat tafakkuri mazmunida sifat jihatidan yangi oʻzgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu oʻzgarishlar ijtimoiy mentalitetda faollik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy masʼuliyat va moslashuvchanlik kabi xususiyatlarning kuchayishi bilan namoyon boʻlmoqda. Shu bois global miqyosda jamiyat tafakkuridagi

o'zgarishlarning ijtimoiy mentalitetga ta'sirini kompleks va tizimli tahlil etishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Jamiyat taraqqiyotini tushunishda inson tafakkuri, dunyoqarashi va xulq-atvorini belgilaydigan ichki ruhiy omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, «mentalitet» va «ijtimoiy mentalitet» tushunchalari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va madaniyatshunoslik fanlarida muhim kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tushunchalar jamiyat a'zolarining fikrlash tarzi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan yondashuvini anglashda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Hayot talabi bilan kun tartibiga qo'yilgan bu vazifalarni amalga oshirish demokratik islohotlarni milliy mentalitet bilan aloqador tarzda hal qilishga, yutuqlar samaradorligiga hamda milliy taraqqiyot modelining takomillashuviga olib keladi. Chunki mentalitetga oid tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqlarning necha ming yillik tarixi ular o'rtasidagi mentallik farqlarini o'chirib yubora olmagan, hatto zamonaviy texnologiyalar ham mentalitetga faqat qisman ta'sir ko'rsata olgan, xolos. Shu sababli o'zbek mentaliteti shakllanishining o'tgan asr bilan bog'liq oqibatlari, saboqlari va istiqbolini belgilaydigan jihatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«Mentalitet» so'zi qadimgi lotin tilidan olingan bo'lib, inson ruhiyatining o'ziga xos sifatlarini ifodalaydi. Bu tushuncha turli madaniyatlarda turlicha ma'nolarni qamrab oladi. Masalan, hozirgi kunda mazkur atama bilan bir qatorda boshqa tillardan olingan so'zlar ham ishlatiladi. Ushbu paragrafda mentalitet tushunchasini tahlil etish maqsadida uning kelib chiqish tarixi, mavjud bo'lgan asosiy konsepsiyalari, shuningdek, jamiyat hayotida tutgan o'rni aniqlanadi.

Hozirgi adabiyotlarda «mentalitet» tushunchasining etimologiyasi turlicha talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uni lotincha *mens* so'zi va undan XV asrda o'rta asr sxolastikasi tilida yasalgan *mentalis* sifati (*mens*, *mentis* — aql; *alis* — boshqalar) bilan bog'laydilar [1].

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tomonidan nashr etilgan «Falsafa: qomusiy lug'at»da mentalitetga quyidagicha ta'rif berilgan: «Mentalitet (lot. *mens* — aql, idrok) jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma'naviy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati» [2]. Ko'rinib turibdiki, mentalitet tushunchasiga berilgan ta'riflar ularni ishlab chiqqan jamiyat, ilmiy guruh yoki mualliflarning g'oyaviy yo'nalishi, maqsadi va metodologik yondashuvini aks ettiradi. Shu bilan birga, ularda umumiy jihatlar ham mavjud bo'lib, bular aql, fikr, mushohada, ong, dunyoni idrok etish, ruhiy holat, ma'naviyat va e'tiqod kabi omillarning mentalitetda yetakchi o'rin tutishi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy falsafaga berilgan ta'riflarga ko'ra, u jamiyat va insonni to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ijtimoiy-gumanitar fanlar — tarix, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, etnografiya, iqtisodiy nazariya va boshqalarning yutuqlariga tayangan holda jamiyat haqida falsafiy qarashlar tizimini yaratadi [3]. Shu ma'noda, mentalitet masalasiga doir sotsiologiya, psixologiya va politologiya sohalaridagi tadqiqotlarning

falsafiy mohiyatini ochib berish, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotda mentalitetga oid falsafiy qarashlar tizimini shakllantirish ijtimoiy falsafaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, «mentalitet» atamasi «dunyo haqidagi tasavvur» ma'nosini anglatuvchi fransuzcha *mentalité* so'zidan kelib chiqqan [4]. Tarixiy manbalarga ko'ra, ingliz falsafasi ta'sirida XVII asrda shakllangan *mentality* atamasi falsafiy tushuncha sifatida mustahkamlangan. Fransiyada esa *mentalité* so'zi XVIII asrda (qisman Volter ijodi ta'sirida) so'zlashuv tiliga kirib kelgan bo'lsa-da, XX asr boshlarigacha neologizm sifatida baholangan. Hozirgi ingliz lug'atlarida «mentality» atamasi aql xususiyatlarini ifodalovchi turli ta'riflarda, jumladan, fikrlash tarzi, ong yo'nalishi va aqliy qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilinadi [5–10].

Chet el ilmiy adabiyotlarida ham mentalitet ko'pincha aql xususiyati bilan bog'lab izohlanadi. Xususan, D. Fild mentalitetni mantiqiy shaklga ega bo'lmagan, biroq tizimli xususiyat kasb etuvchi, moddiy hayotda ildiz otgan hamda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi barqaror xossa sifatida ta'riflaydi [11].

Shuni ta'kidlash lozimki, g'arb olimlari tomonidan qo'llanilgan mentalitet tushunchasi ayrim hollarda shu qadar ambivalent tus olganki, J. Le Goff uning mujmalligi bilan murosa qilishni taklif etgan. Uning fikricha, aynan shu holatda ushbu tushunchaning boyligi va o'rganilayotgan ob'ektga mos serqirrali ma'nosi namoyon bo'ladi [12]. Ayrim tadqiqotchilar esa g'arb adabiyotlarida «mentalitet» atamasi turli hodisalarni anglatgani sababli, faqat xorijiy manbalarga tayanish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlaydilar [13]. Shu bilan birga, keyingi yillarda nashr etilgan tadqiqotlarda ham ushbu tushunchaning yagona va maqbul ta'rifi mavjud emas, chunki u inson aqlining turli qirralariga nisbatan qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, mentalitet muayyan jamiyatga mansub kishilarda ularning tabiiy va ijtimoiy muhiti hamda o'z-o'zini idrok etish jarayonini ta'minlovchi o'ziga xos «aqliy vosita» yoki «ruhiy dastak» mavjudligini anglatadi. Darhaqiqat, mentalitet tushunchasini aniq ta'riflash muammosi mazkur ijtimoiy-madaniy fenomenning o'ta murakkabligi bilan bog'liq. Bu holatni N.A. Berdyaev ham ta'kidlab, «xalq individualligi»ni aniq ilmiy ta'riflash mushkul ekanini, chunki har qanday individuallikka faqat muhabbat orqaligina yetib borish mumkinligini qayd etgan [14].

Turli tadqiqot mualliflari mental soha haqidagi umumiy tasavvurni turlicha ta'riflar bilan boyitadilar. Ushbu ta'riflarni tizimlashtirish natijasida mentalitet muayyan madaniyatda yashovchi kishilarning umumiy xususiyati sifatida namoyon bo'ladi va ularning dunyo haqidagi o'ziga xos tasavvurini hamda unga bo'lgan munosabatini tavsiflaydi [15]. Bu yerda individual emas, balki kollektiv mentalitet nazarda tutiladi, ya'ni u muayyan madaniyatga xos bo'lgan idrok etish va fikrlash uslublarining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi [16].

Mentalitet tushunchasining lug'aviy talqinlari S.I. Ojegov va N.Yu. Shvedova asarlarida ham uchraydi. Ularning fikricha, mazkur atama «dunyo haqidagi tasavvur»

va «aql yoʻnalishi»ni anglatadi [17], shuningdek, «dunyoni idrok etish yoki aql kayfiyati» sifatida ham tavsiflanadi [18].

Biroq, bu talqinlar ham mentalitet mohiyatini toʻliq ochib bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarning taʼkidlashicha, mentalitet aniq mantiqiy shaklga ega boʻlmasa-da, muayyan tizimlilikka ega boʻlib, ong va diniy eʼtiqoddan farq qiladi. U inson yoki kishilar guruhi faoliyatida oqilona va nooqilona bilish shakllari oʻrtasida oʻrin egallaydigan obrazlar va tasavvurlar yigʻindisini anglatadi [19].

Shu bilan birga, mentalitet tarkibida ham ongli, ham ongsiz elementlar mavjudligini inkor etib boʻlmaydi. Ye.A. Anufriev va L.V. Lesnaya taʼkidlashicha, ingliz olimi E. Berk nuqtai nazaridan mentallikka aytilmagan va anglanmagan holatlar, amaliy aql-idrok hamda kundalik tafakkurga qiziqish xosdir [20].

Xulosa qilganda, mentalitet va ijtimoiy mentalitet tushunchalari jamiyat tafakkurini, madaniy qadriyatlarini va ijtimoiy munosabatlarini anglashda muhim falsafiy kategoriyalar hisoblanadi. Mentalitet inson tafakkurining tarixiy va maʼnaviy asosini ifodalasa, ijtimoiy mentalitet jamiyatning jamoaviy fikrlash tarzi va ijtimoiy barqarorligini taʼminlaydi. Ularning oʻzaro bogʻliqligi jamiyat taraqqiyotining maʼnaviy-axloqiy negizini belgilab beradi.

### Adabiyotlar:

1. Ануфриев Е.А., Лесная Л.В. Менталитет как социально-политический и духовный феномен. // Социально-политический журнал, 1997, №3. - С.25.
2. Falsafa qomusiy lugʻati. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 257.
3. Falsafa qomusiy lugʻati. - Toshkent: Sharq, 2004. - B. 151.
4. Гуревич А.Я. Проблема ментальностей в современной историографии. // Всеобщая история: дискуссии, новые подходы. - Москва: Наука, 1989. - С.19.
5. Reber A.S. The pinguin dictionary of psychology. - London, Penguin, 985. - P. 454.
6. Drever J.A. A Dictionary of psychology. - Harmondsworth: Penguin Books, 1976. - P. 171.
7. Chaplin J.P. Dictionary of psychology. - New York: Publ. Dell, 1985. - P. 313.
8. The Universal Dictionary of English language. - London: United Kingdom, 1957. - P. 720.
9. Webster's Third International Dictionary. - London, 1961. - P. 1411.
10. Funk and Wagnalis New Standard dictionary of the English language. - New York, 1962. - P. 1552.
11. Фильд Д. История менталитета в зарубежной исторической литературе. // Менталитет и аграрное развитие (XIX-XX вв). Материалы международной конференции. - Москва: Гос.полит. энциклопедия, 1996. - С. 8.
12. Астахов С. История ментальностей. // Историческая антропология. - Ростов на Дону: Феникс, 2002. - С. 40.
13. Розин В. Ментальность народов мира. (Специфика сознания больших групп населения). - Москва: АСТ, 1997. - С.10.

14. Бердяев Н.А. Судьба России. -Москва: Мысль, 1990. -С.43.
15. Дубов И.Г. Феномен менталитета: психологический анализ. // Вопросы психологии, 1993, №5. - С.27.
16. Розин В. Ментальность народов мира. (Специфика сознания больших групп населения). - Москва: АСТ, 1997. - С.10.
17. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - Москва: ИТИ Технологии, 2006. - С.358.
18. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. - Москва: ИТИ Технологии, 2006. - С. 358.
19. История ментальностей. Историческая антропология. Зарубежные исследования в обзорах и рефератах. - Москва: РГГУ, 1996. - С. 39.
20. Ануфриев Е.А., Лесная Л.В. Менталитет как социально-политический и духовный феномен. // Социально-политический журнал. 1997, №3. - С.23.